

I. SANOAT


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 2 976 taga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil 1- iyul holatiga nisbatan 101 ta yoki 96,7 % ni tashkil etdi. 2025- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 320 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ularning 14,1 foizi Qarshi shahri, 11,9 foizi Yakkabog' tumani, 8,8 foizi Shahrisabz shahri, 8,1 foizi Shahrisabz tumani, 7,5 foizi, Ko'kdala tumani, hamda 6,5 foizi Qarshi, Kitob, Mirishkor va Chiroqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keldi.




2025- yil 1- iyul holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

	<i>faoliyat yuritayotgan</i>	<i>shundan,</i>		<i>2025- yil yanvar-iyun oylarida tashkil etilgan</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>	
Jami	2 976	46	2 930	320
Qarshi sh.	545	10	535	45
Shahrisabz sh.	230	2	228	28
G'zor t.	188	3	185	17
Dehqonobod t.	65	1	64	5
Qamashi t.	124	1	123	15
Qarshi t.	199	2	197	18
Koson t.	155	6	149	16
Kitob t.	360	3	357	18
Mirishkor t.	79	2	77	18
Muborak t.	83	3	80	12
Nishon t.	78	4	74	13
Kasbi t.	111	3	108	9
Kukdala t.	102	-	102	24
Chiroqchi t.	141	-	141	18
Shahrisabz t.	236	3	233	26
Yakkabog' t.	280	3	277	38


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2025- yil 1- iyul holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2025- yil yanvar-iyun)



Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2025- yil yanvar-iyun)




Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 17 935,6 mlrd. so'm bo'lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 98,9 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo'yicha 3 890,5 mlrd. so'm (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 16,9 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo'yicha 117,1 mlrd. so'm (0,5 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo'yicha 1 098,1 mlrd. so'm (4,8 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishida Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 131,0 %, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 137,3 %, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 104,8 % o'sishga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	mlrd. so'm		fizik hajm indeksi, %	jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida	
	2024- y.	2025- y.		2024- y.	2025- y.

Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

	19 974,5	21 041,3	107,0	100,0	100,0
--	----------	----------	-------	-------	-------

iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

	731,9	1 098,1	131,0	3,7	4,8
--	-------	---------	-------	-----	-----

ulardan:

Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari

	95,1	369,2	2,6 m.	0,5	1,6
--	------	-------	--------	-----	-----

Qayta ishlash sanoati

	16 651,2	17 935,6	98,9	83,4	77,8
--	----------	----------	------	------	------

undan:

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish

	4 507,8	5 102,0	109,7	22,6	22,1
--	---------	---------	-------	------	------

To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish

	4 535,1	4 664,8	103,0	22,7	20,2
--	---------	---------	-------	------	------

Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish

	4,7	47,7	9,3 m.	0,02	0,2
--	-----	------	--------	------	-----

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

	9,5	9,0	74,5	0,05	0,04
--	-----	-----	------	------	------

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

	2 510,1	1 714,9	60,2	12,6	7,4
--	---------	---------	------	------	-----

davomi

	mlrd. so‘m		fizik hajm indeksi , %	jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida	
	2024- y.	2025- y.		2024- y.	2025- y.
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	86,4	88,1	99,1	0,4	0,4
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	2 594,7	3 731,4	127,6	13,0	16,2
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	5,6	12,8	2,3 m.	0,03	0,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1 079,1	1 000,7	91,0	5,4	4,3
Metallurgiya sanoati	13,4	16,8	74,9	0,1	0,1
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	56,9	114,2	188,0	0,3	0,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	191,2	104,1	52,8	1,0	0,5
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	4,6	3,6	69,9	0,02	0,02
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	3,6	22,3	5,8 m.	0,02	0,1
Mashina va uskunalari ta'mirlash va o'rnatish	4,4	4,7	103,2	0,02	0,02
boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	6,5	3,5	48,3	0,03	0,02
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	2 495,9	3 890,5	137,3	12,5	16,9
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	95,5	117,1	104,8	0,5	0,5


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 098,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,8 foizini tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha Xom neft hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,2 foizga o'sganligini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan ulishi, foiz hisobida)

2024- yil yanvar-iyun

2025- yil yanvar-iyun





Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)

	o'lchov birligi	yanvar-iyun oylarida		2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan, % hisobida
		2024- y.	2025- y.	

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Xom neft	ming tn.	5,4	4,8	88,4
Tabiiy gaz	mln.m3	108,0	217,8	2,0 m.
Chaqiq tosh (sheben)	ming tn.	9,6	7,0	72,3

Ishlab chiqaradigan sanoat

Aroq mahsulotlari	ming l. 100% spirt	906,9	661,8	73,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni	ming tn.	16,1	16,2	100,4
Paxta tolasi	ming tn.	38,9	37,2	95,6
Paxta chigiti	ming tn.	62,9	54,5	86,6
Paxta tiviti (lint)	ming tn.	2,0	2,9	149,2

	o'lchov birligi	yanvar-iyun oylarida		2024- yil yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida
		2024- y.	2025- y.	

Mashina yoki qo'lda to'qilgan tirkotaj polotnolar	<i>tn.</i>	3 111,4	3 053,6	98,1
---	------------	---------	---------	------

Paxtadan yigirilgan ip	<i>ming tn.</i>	35,2	37,2	105,6
------------------------	-----------------	------	------	-------

Kaliy xlorid	<i>ming tn. K2O</i>	105,6	105,0	99,4
--------------	-------------------------	-------	-------	------

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	3 756,4	4 315,2	114,9
---	------------------	---------	---------	-------

Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	1 791,7	1 662,7	92,8
--	-------------------	---------	---------	------

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari	<i>mln. so'm</i>	71 166,3	77 975,4	109,6
---	------------------	----------	----------	-------

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	<i>mln. so'm</i>	6 010,2	7 548,6	125,6
---	------------------	---------	---------	-------

2025- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17 935,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 77,8 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 foizni, oʻrta-yuqori texnologiyali 16,1 foizni, oʻrta-quyi texnologiyali 30,6 foiz va quyi texnologiyali 52,6 foizni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



Oʻz navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan Tabiiy gaz kondensati 3,3 foizga, Yumshoq bugʻdoy va spelta uni 0,4 foizga oshgan boʻlsa, paxta tolasi 4,4 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 890,5 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,9 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 117,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 foizi) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 125,6 foizga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarining 109,6 foizga oshganligi kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari (jami nisbatan ulishi)

Viloyatni sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nishon tumani (jami ishlab chiqarish hajmining 26,8 %), Qarshi shahri (10,6 %), G'uzor (10,5 %), Qarshi tumani (5,9 %), Kasbi tumani (5,8 %), Kitob tumani (3,9 %), Koson (3,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2025- yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

	<i>sanoat mahsulotlari, mlrd. so'm</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
Qashqadaryo viloyati	23 041,3	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi sh.	2 441,9	10,6
Shahrisabz sh.	424,0	1,8
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2 429,2	10,5

davomi


	<i>sanoat mahsulotlari, mlrd. so'm</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
Dehqonobod	574,6	2,5
Qamashi	403,7	1,8
Qarshi	1 365,4	5,9
Koson	871,3	3,8
Kitob	888,8	3,9
Mirishkor	652,5	2,8
Muborak	588,4	2,6
Nishon	6 185,3	26,8
Kasbi	1 327,8	5,8
Ko'kdala	167,1	0,7
Chiroqchi	464,7	2,0
Shahrisabz	602,2	2,6
Yakkabog'	467,2	2,0



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

	<i>Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so‘m</i>	
	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>o‘tgan yilga nisbatan, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	6 301,4	104,7
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi sh.	8 079,5	101,5
Shahrisabz sh.	2 813,2	104,0
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	10 651,2	105,0
Dehqonobod	3 512,6	100,5
Qamashi	1 339,4	98,1
Qarshi	4 857,7	98,4
Koson	2 713,8	105,8
Kitob	3 076,8	100,1
Mirishkor	4 911,3	105,0
Muborak	6 149,7	107,7
Nishon	36 060,0	110,0
Kasbi	6 069,9	102,1
Ko‘kdala	854,3	105,3
Chiroqchi	1 684,7	103,6
Shahrisabz	2 511,4	105,0
Yakkabog‘	1 614,2	90,8

**2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari,
ming so'mda**



Hisobot davrida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi eng yuqori ko'rsatkichlar bilan Nishon tumani 36 060,0 ming so'm, G'uzor tumani 10 651,2 ming so'm va Qarshi shahrida 8 079,5 ming so'mni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2025- yilning yanvar-iyun oylarida 4 283,3 mlrd. soʻmlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining oʻsishi boʻyicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur boʻlgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni oʻsishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.



Mahalliyashtirish dasturining asosiy koʻrsatkichlari

	2024- yil yanvar-iyun	2025- yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	51	48
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	50	41
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.soʻm</i>	3 232,7	4 283,3
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	85,4	150,8
Yaratilgan yangi ish oʻrinlari, <i>birlik</i>	253	178

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 693,2 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qoʻshma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 11,7 foizni tashkil etdi.